



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2026. Issue 5

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London 2026.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





AN'ANAVIY IJROCHILIK MAHORATINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Tursunxo'jayeva Mohinposhsha Nodirxo'ja qizi

Farg'ona Davlat Universiteti 2-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada musiqa ta'limidagi talabalarning an'anaviy ijrochilik mahoratini rivojlantirishda faqat „ustoz- shogird“ an'anasiga tayanibgina qolmasdan, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Og'zaki an'ana, Shashmaqom, zamonaviy sintez texnologiyasi, ustoz-shogird.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается развитие навыков традиционного исполнительского мастерства студентов музыкального образования. Авторы подчеркивают, что в данном процессе необходимо опираться не только на традицию «учитель-ученик» (устоз-шогирд), но и активно использовать современные педагогические технологии.

Ключевые слова: устная традиция, Шашмаком, современные технологии синтеза, учитель-ученик (устоз-шогирд).

ABSTRACT

This article discusses the development of traditional performance skills among music education students. It emphasizes that this process should not rely solely on the "master-apprentice" (ustoz-shogird) tradition, but should also actively incorporate modern pedagogical technologies.

Keywords: oral tradition, Shashmaqom, modern synthesis technology, master-apprentice.

KIRISH

Musiqa ta'limida talabalarning tahliliy va ijodiy tafakkurini boyitish maqsadida quyidagi zamonaviy va an'anaviy metodlarni uyg'unlashtirish samarali natija beradi:

"Ustoz-shogird" (Og'zaki an'ana) texnologiyasi- ushbu klassik metod zamonaviy ta'limda musiqiy xotira va diqqatni maksimal darajada shakllantirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Faqatgina notaga bog'lanib qolmasdan, kuyni "quloqdan quloqqa" (og'zaki) o'zlashtirish talabaning ichki eshitish qobiliyatini va musiqiy axborotni tezkor qayta ishlash intellektini charxlaydi.⁵⁶

Og'zaki an'ana- bu an'anaviy o'zbek musiqasi namunalari xalq tomonidan asrlar davomida yaratilib, og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga, ustozdan shogirdga o'tib, xalqning yetuk sozanda va xonandalari ijrosida sayqal topib kelayotgan badiiy ijod mahsulidir. Shu bois ushbu musiqaning yaratilishi va tarqalishi jonli og'zaki an'ana bilan bog'liqdir. Uning namunasi qaysi shakl va janrda bo'lmasin, ijodkor xalqning orzu va umidlarini, ijtimoiy-tarixiy voqelikka bo'lgan

⁵⁶ **Ibrohimov O.** O'zbek xalq musiqa ijodi. – Toshkent: Musiqa, 2010. – B. 85.





munosabatini ifodalaydi. Bu san'atning yuzaga kelishi kishilarning mehnat tajribasini og'zaki shakllarda talqin etilishidir.

Natija va muhokama

Har bir musiqiy cholg'uda musiqa asari ijro etishdan oldin maqomlar tovushqatorlari asosida mashqlar chalish kerak, Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh va Iroq maqomlari (Shashmaqom), bizga ma'lumki, tanbur cholg'usi pardalari asosida nota yozuvda aks ettirilgan bo'lsa, rubob, dutor, qonun, nay, qo'shnay kabi cholg'ularda maqomlar mazkur sozlarga moslashtirilgan holda ijro etilishi mumkin. Bu esa yetuk sozandalarimiz ijrochilik faoliyatlari davomida olib borgan ijodiy izlanishlari orqali bizga ma'lum. Yosh sozandalarga (turli xil cholg'u mutaxassisligi bo'yicha) saboq berish jarayonida fonotekadan qay tarzda foydalanish kerakligini o'qituvchi tushuntirishi maqsadga muvofiq. Biz yuqorida mashqlarni an'anaviy musiqa (maqomlar) tovushqatorlari asosida ijro qilish foydadan holi emasligi haqida so'z yuritdik. Bunday mashqlarni nota yozuvda har bir mutaxassis o'qituvchi turli ritmik o'lchovlarda, ijrochi-talabaning ijro imkoniyatlarini inobatga olgan holda nota daftariga yozib berishi yoki tayyor yozilgan mashqlarni tavsiya etishi mumkin. Mashqlardan so'ng o'quvchi rejasidagi asarlarning biri ustida ish olib borish mumkin. Avvalambor, berilgan asar matn(tekst)ini o'quvchi yodlamagunicha asarning musiqiy bezaklari ustida ishlamaslik kerak, chunki an'anaviy ijrochiligimizda kuy matni bir xil bo'lgan taqdirda ham uning milliy bezaklarini nota yozuvda to'laligicha aks ettirib bo'lmaydi. Bunday musiqa bezaklarni tinglash yoki jonli ijroni ko'rishdan keyingina o'zlashtirish mumkin. O'qituvchi o'z o'quvchilariga ilk kuy matni (tekst)ini oddiy zarb (shtrix)larda yodlashni tavsiya qilmog'i kerak. Kuy matnini o'zlashtirib yodlagandan so'ng turli shtrixlarni (o'quvchining imkoniyatlariga qarab) qo'llashida amaliy ish olib borish lozim. An'anaviy ijrochilikda pozitsiya almashuvlari, ya'ni chap qo'l barmoqlarining pardalardagi harakatlarida, nola, qochirim va turli ornamental – bezaklarni ijro qilishda 1, 2- barmoqlar asosiy vazifani bajaradi. 3, 4- barmoqlar esa ko'proq forshlagsimon qochirimlarni ijro qilishda muhim o'rin tutadi. Maqomlarning ashula bo'limlarini cholg'u sozlarida ijro qilishdan oldin, uni so'zlari bilan xirgoyi qildirgan ma'qul. Ashula yo'llaridagi kuylarning har bir jumla (faza)si albatta g'azallar vazn o'lchovlariga to'g'ri kelmog'i lozim. Ana shundagina ashula yo'llarini cholg'ularda to'la va benuqson ijro qilishga erishiladi. Hozirgi davrimizda o'zbek xalq milliy musiqa merosini o'rganish uchun yaxshi qulayliklar mavjud. O'ajribali, maqomdon ustozlar tomonidan notaga, magnit tasmlari va gramplastinka, audio, video va kompakt disklarga yozib olingan umrboqiy musiqa asarlarining borligini o'zi fikrimizning yaqqol dalilidir. Xalq kuylarini, murakkab musiqa janri bo'lmish maqomlarni o'rgatishda avval o'qituvchi o'z cholg'usi yoki xonishida shogirdiga jonli ijro qilib berishi kerak. Bu ijro iloji boricha dastlab sodda, ravon va aniq bo'lishi lozim. Asar ijrosi nota yozuviga mos bo'lsagina o'quvchi uni o'rganishida qulaylik yaratiladi. Jonli ijro bilan birgalikda magnit tasmlari, gramplastinka, audio, video





va kompakt disklardagi musiqiy yozuvlarni ham tinglash orqali o'quvchi tushunchasini, uning turli ijro namunalarini farqlay olishdagi musiqiy dunyoqarashini kengaytirib borish yaxshi natijalar beradi. Xalq kuylari va mumtoz ashulalarni sozanda va xonandalarimiz turli xildagi yo'llar (variant)da ijro etib kelishadi. Masalan, «Ushshoq» ashulasini olsak, uni turli vohalar yoki ilk bor ijro etgan hofizlar nomlarini qo'shib atalishining o'ziyoq ular uslubidan va yo'llaridan darak beradi. «Samarqand Ushshog'i», «Qo'qon Ushshog'i», «Ushshoqi Kalon», «Hoji Abdulaziz Ushshog'i», «Sodirxon Ushshog'i», «Ushshoq» yoki «To'ychi Hofiz Ushshog'i» va hokazo. Birgina ashula yo'llarida emas, balki ayrim mushkilot ya'ni cholg'u yo'llarida ham mana shunday atamalarni uchratamiz. Masalan, Buzruk maqomida «Muxammasi Nasrulloi», «Saqili Sulton», Navo maqomida «Muxammasi Husayniy», Dugoh maqomida «Muxammasi Xo'jahoji», Segoh maqomida «Muxammasi Mirza Hakim», «Saqili Bastanigor», xalq kuylari «Hojiniyoz», «Begisulton», «Rajabiy», «Ajam», «Navro'zi Ajam», «Farg'onacha», «Qo'qoncha» va hokazolar shular jumlasidandir⁵⁷.

Zamonaviy sintez texnologiyasi- musiqa ta'limida talabalarning nafaqat ijro mahoratini, balki ularning intellektual va tahliliy salohiyatini bir vaqtda rivojlantirishga qaratilgan innovatsion yondashuvdir. Bu metodika an'anaviy "ustoz-shogird" maktabini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan integratsiya qilish asosiga qurilgan.

Quyida ushbu metodikaning mohiyati, tarkibiy qismlari va uning musiqiy tafakkurni shakllantirishdagi o'rni kengaytirilgan holda yoritiladi. Sintez metodikasi musiqiy asarni o'rganishda uni faqatgina "tovushlar yig'indisi" deb emas, balki falsafiy, adabiy, tarixiy va matematik tizimlarning birlashmasi sifatida talqin qiladi. Bu yondashuvda talaba asarni o'rganish jarayonida bir necha sohalar kesishmasida izlanish olib boradi: Musiqa + Adabiyot (G'azal va Aruz): Maqom yoki an'anaviy asarni o'rganayotgan talaba uning matni (g'azal)ning vaznini (masalan, ramal yoki xajaz) tahlil qiladi. She'riy vaznning musiqiy usul (doira zarbi) bilan sintezi asarning ichki ritmik mantiqini ochib beradi. Musiqa + Tarix: Asar yaratilgan davrning ijtimoiy-madaniy muhiti, masalan, Temuriylar yoki Buxoro madaniy muhiti o'rganiladi. Bu talabada asarning tarixiy "ruhini" his etishga yordam beradi. Musiqa + Falsafa (Tasavvuf): Mumtoz musiqadagi ramziy ma'nolar, tasavvufiy tushunchalar va asarning mohiyati tahlil qilinadi. Ushbu texnologiya dars jarayonida quyidagi mantiqiy ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

A. Vertikal sintez (Fanlararo bog'liqlik): Talaba bir vaqtning o'zida musiqashunos, adabiyotshunos va tarixchi sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, "Munojot" asarini o'rganishda uning g'oyaviy negizi (Alisher Navoiy g'azali) va musiqiy strukturasining o'zaro ta'siri tahlil qilinadi. Bu talabada universal musiqiy tafakkurni shakllantiradi.

B. Gorizontal sintez (Ijro uslublari integratsiyasi): An'anaviy ijrochilik uslublari zamonaviy talqinlar bilan qiyoslash. Masalan, ustozlarning klassik

⁵⁷ Qosimov R. An'anaviy ijrochilik. - Toshkent.FAN nashriyoti, 2007. B.16-17.





ijrosi bilan zamonaviy "etno-jaz" yoki "akademik maqom" yo'nalishlarini sintez qilish. Bu talabaga asarning dinamik o'zgarishlarini anglashga yordam beradi.

C. Texnologik sintez (Multimedia va raqamli vositalar): Bugungi kunda sintez metodikasi audio-vizual texnologiyalar (notani tahrirlovchi dasturlar, spektrogrammalar, video-tahlil) bilan boyitilmoqda. Talaba o'z ijrosini kompyuter tahlili yordamida ustoz ijrosi bilan solishtiradi (tembr, dinamika, intonatsiya chastotasi bo'yicha). Sintez texnologiyasining pedagogik samaradorligi- an'anaviy ta'limdagi "takrorlash" (imitatsiya) tamoyilini "anglash va yaratish" tamoyiliga aylantiradi: Tizimli fikrlash: Talaba asarni nafaqat barmoqlari bilan chalyapti, balki uning har bir "nola"sini falsafiy va adabiy jihatdan asoslab bera oladi. Kreativlik: Turli sohalar bilimi bilan boyigan talaba o'zining individual ijro uslubini (interpretatsiyasini) osonroq topadi. Motivatsiya: Musiqaning boshqa san'at turlari va fanlar bilan bog'liqligini ko'rgan talabaning professional qiziqishi ortadi.

XULOSA

Demak, zamonaviy sintez metodikasi talabaning musiqiy tafakkurini „bir yo'nalishli" likdan qutqarib, uni ko'p qirrali (multidistsiplinar) darajaga olib chiqadi. Bu esa o'z navbatida, milliy musiqani global madaniyat maydonida nafaqat saqlab qolish, balki uni yangi, ilmiy asoslangan shakllarda rivojlantirishga xizmat qiladi.





Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ramazonova, O'.X. (2024). Maqom yakkaxon ijrochiligi (darslik). – muallif maqom ijrochiligi bo'yicha yetakchi mutaxassis bo'lib, ushbu darslikda maqomlarni o'qitish metodikasi yoritilgan .
2. Rajabov, I. (2006). Maqom asoslari. Toshkent: "Musiqqa" nashriyoti. – o'zbek maqomshunosligining fundamental asari.
3. Yunusov, R. (2015). O'zbek maqomlari tarixi va nazariyasi. Toshkent: "Fan" nashriyoti.
4. Matyoqubov, O. (2004). Maqomot. Toshkent: "Musiqqa" nashriyoti.
5. CSPU nashri. (2023). Maqom asoslari (oliy ta'lim talabalari uchun o'quv qo'llanma). – mumtoz maqomlar tarixi, nazariyasi va ijrochiligi, Buxoro Shashmaqomi, Xorazm maqomlari va Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari haqida ma'lumot beradi .

Ilmiy maqolalar:

1. Ramazonova, O'.X., & Esanova, M.J. (2022). An'anaviy xonandalik rivojida maqomlarning o'rni. Science and Education, 3(1), 496-501. – maqomlarning an'anaviy ijrochilikdagi o'rnini yoritadi .
2. Ramazonova, O'.X. (2023). O'n ikki maqom tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari. Pedagogik MAHORAT Ilmiy-nazariy va metodik jurnal, Maxsus son 6(3), 169-170. – o'n ikki maqom tizimining tahlili .
3. Rixsiyev, A.A. (2025). O'zbek va tojik an'anaviy qo'shiqchiligida maqom tizimining o'rni va ahamiyati. Sciencebox konferensiya materiallari. – maqom tizimining mumtoz she'riyat, ustoz-shogird an'anasi va zamonaviy ijrochilik bilan bog'liqligi tahlil qilingan .
4. Jo'rayeva, U.Q., Mardonova, S.N., & Toshtemirova, V.S. (2023). Musiqqa maktablarida an'anaviy xonandalikni kuylash. Cyberleninka maqolasi. – an'anaviy ijrochilik maktablari (Farg'ona-Toshkent, Xorazm) va ularning uslubiy xususiyatlari haqida .
5. Saidaxmedov, S. (2023). Xorazm maqomlarining talabalarga o'rgatish usullari. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 324-326. – Xorazm maqomlarini o'qitish metodikasiga bag'ishlangan .
6. Ramazonova, O. (2024). Maqom san'ati va uning bugungi kundagi ravnaqi. Nordic University Research, 1(1), 1-5.
7. Narzullayeva, D. (2025). Milliy musiqqa madaniyatining yoshlar ma'naviyatiga ta'siri: estetik tarbiya va milliy o'zlikni shakllantirish omili sifatida. Sovremennaya nauka i issledovaniya, 4(4), 462–467. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15272521>

